

KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN ISLOM MOLİYASI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN MAHSULOTLARNING SAMARADORLIGI

Atabekova Shaxnoza Ashrabbek qizi

“Ipak Yo‘li” AITB xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishda islom moliyasi asosida tashkil etilgan moliyaviy mahsulotlarning samaradorligi kompleks tahlil qilinadi. Bugungi kunda kichik va o‘rta biznes iqtisodiy o‘sinh, bandlikni ta‘minlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Maqolada islom moliyasi asosida moliyalashtirishda spekulativ operatsiyalarning cheklanishi, foizdan voz kechish va foyda-zararni adolatli taqsimlash tamoyillari biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab beriladi. O‘zbekiston sharoitida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish imkoniyatlari, mavjud huquqiy va institutsional muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Kichik va o‘rta biznes, islom moliyasi, islomiy moliyaviy mahsulotlar, murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, foizsiz moliyalashtirish, foyda va zarar taqsimoti, tadbirkorlikni moliyalashtirish, moliyaviy barqarorlik.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the effectiveness of financial products organized on the basis of Islamic finance in financing the activities of small and medium-sized business entities. Today, small and medium-sized businesses occupy an important place in the development of economic growth, employment and innovative activities. The article is based on the fact that the principles of limitation of speculative operations, abandonment of interest and fair distribution of profit-loss in financing on the basis of Islamic finance serve to strengthen the financial stability of business entities. In the conditions of Uzbekistan, the possibilities of introducing Islamic finance products, existing legal and institutional problems and proposals for their elimination are put forward.

Keywords: Small and medium-sized businesses, Islamic finance, Islamic financial products, murabaha, mudaraba, musharaka, rent, interest-free financing, profit and loss distribution, entrepreneurship financing, financial stability.

Аннотация: В данной статье будет проведен комплексный анализ эффективности финансовых продуктов, созданных на основе исламских финансов, в финансировании деятельности субъектов малого и среднего бизнеса. Сегодня малый и средний бизнес занимает важное место в экономическом росте, обеспечении занятости и развитии инновационной деятельности. В статье обосновывается, что ограничение спекулятивных операций при финансировании на основе исламских финансов, отказ от процентов и принципы справедливого распределения прибыли и убытков служат укреплению финансовой устойчивости субъектов хозяйствования. В условиях Узбекистана выдвигаются возможности внедрения исламских финансовых продуктов, существующие правовые и институциональные проблемы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: Малый и средний бизнес, исламские финансы, исламские финансовые продукты, мурабаха, мудараба, мушарака, аренда, беспроцентное финансирование, распределение прибылей и убытков, финансирование предпринимательства, финансовая стабильность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida kichik va oʻrta biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taʼminlovchi asosiy tayanch boʻgʻinlardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Aynan ushbu sektor yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda bozor muhitini jonlantirishda muhim rol oʻynaydi. Shu bilan birga, kichik va oʻrta biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi koʻp jihatdan moliyaviy resurslarga boʻlgan imkoniyatlarga bogʻliq boʻlib, moliyalashtirish masalasi ularning rivojlanishidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, anʼanaviy bank

kreditlari yuqori foiz stavkalari, qat'iy garov talablari va qisqa muddatli moliyalashtirish shartlari sababli barcha tadbirkorlar uchun ham birdek qulay emas.

Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun islom moliyasi asosida tashkil etilgan mahsulotlar nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositasi, balki ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida ham qaralmoqda. Murabaha, mudaraba, musharaka, ijara kabi islomiy moliyaviy instrumentlar tadbirkorlik faoliyatining turli bosqichlarida moslashuvchan moliyalashtirish imkonini yaratadi. Ushbu mahsulotlar orqali ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish va investitsiya faoliyati bevosita real aktivlar bilan bog'lanib, spekulativ operatsiyalarning oldi olinadi. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi hamda ularning bozor risklariga chidamliligi oshadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi tizimi rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasiga aylangan. Ayrim davlatlarda islomiy banklar va moliyaviy institutlar orqali tadbirkorlik subyektlariga yo'naltirilgan resurslar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga, ya'ni an'anaviy bank tizimidan chetda qolayotgan biznes subyektlarining ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Islom moliyasi asosida moliyalashtirilgan loyihalarning yuqori darajadagi barqarorligi va qaytuvchanligi ushbu tizimning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes muhitini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda islom moliyasi tizimini joriy etish va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholining muayyan qismi va tadbirkorlar uchun shariat tamoyillariga mos moliyaviy mahsulotlarga ehtiyoj mavjud bo'lib, bu ehtiyojni qondirish kichik va o'rta biznesning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Islom moliyasi va uning kichik hamda oʻrta biznes subyektlarini moliyalashtirishdagi roli soʻnggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Anʼanaviy moliyaviy tizimlarda foizga asoslangan kreditlash mexanizmlarining ustunligi kichik va oʻrta biznes subyektlari uchun moliyaviy yuklamani oshirishi, risklarni bir tomonlama tadbirkor zimmasiga yuklashi ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Shu sababli islom moliyasi tamoyillariga asoslangan moliyaviy mahsulotlar muqobil va barqaror moliyalashtirish modeli sifatida koʻplab tadqiqotchilar eʼtiborini tortmoqda.

M.U.Chapra [2] oʻzining islomiy iqtisodiyot va moliya boʻyicha tadqiqotlarida islom moliyasining asosiy maqsadi real iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, adolatli taqsimotni yoʻlga qoʻyish va moliyaviy barqarorlikka erishish ekanligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, foizdan voz kechish va foyda hamda zarar taqsimotiga asoslangan mexanizmlar kichik biznes subyektlari uchun uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chapra islom moliyasi mahsulotlari real sektor bilan bevosita bogʻlanganligi sababli spekulativ faoliyatni cheklashini va iqtisodiy inqirozlarga nisbatan barqarorroq ekanini asoslab beradi.

M.Iqbol va M.Mirakhor [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda islomiy moliyaviy institutlarning faoliyati kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mualliflar murabaha, musharaka va mudaraba kabi shartnomalar orqali tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish risklarni adolatli taqsimlashga xizmat qilishini koʻrsatadi. Ularning ishlarida islom moliyasi asosida moliyalashtirilgan loyihalarning qaytuvchanligi va barqarorligi yuqori boʻlishi empirik misollar orqali yoritilgan.

T.Khan va H.Bhatti [4] islomiy banklar va kichik biznes oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni oʻrganib, islom moliyasi mahsulotlari moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim vosita ekanligini taʼkidlaydi. Ularning fikriga koʻra, anʼanaviy bank tizimidan chetda qolgan koʻplab kichik tadbirkorlar islomiy moliya orqali moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Bu esa bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

S.Ahmad va R.Hassan [5] o'z tadqiqotlarida islom moliyasi mahsulotlarining samaradorligini baholashda foyda-zarar taqsimoti mexanizmlarining ustunligini ko'rsatadi. Ularning ta'kidlashicha, musharaka va mudaraba asosidagi moliyalashtirish kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy intizomini oshiradi, chunki moliyaviy institut ham loyiha natijalaridan bevosita manfaatdor bo'ladi. Bu holat tadbirkor va moliyalashtiruvchi o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni shakllantiradi.

A.El-Gamal [6] islom moliyasining nazariy va amaliy jihatlarini tanqidiy tahlil qilib, ushbu tizimning kichik biznes uchun imkoniyatlari bilan bir qatorda muammolariga ham e'tibor qaratadi. U islom moliyasi mahsulotlarining murakkab shartnomaviy tuzilmasi va huquqiy tartibga solishdagi noaniqliklar ayrim hollarda ularning amaliy samaradorligini pasaytirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, El-Gamal islom moliyasi to'g'ri institutsional muhitda joriy etilganda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda samarali natijalar berishini e'tirof etadi.

M.Obaidullahning [7] ilmiy ishlari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun islom moliyasi asosida ishlab chiqilgan mahsulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. U islom moliyasining asosiy ustunligi sifatida moliyaviy adolat, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyatni ko'rsatadi. Obaidullahning fikricha, islom moliyasi mahsulotlari orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy barqarorlik ham ta'minlanadi.

Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi tajribani o'rgangan S.Wilson va R.Henry [8] islom moliyasi mahsulotlari kichik va o'rta biznes uchun muhim investitsion manba bo'lib borayotganini qayd etadi. Ularning tadqiqotlarida islomiy banklar tomonidan moliyalashtirilgan kichik biznes loyihalarining muvaffaqiyat darajasi an'anaviy kreditlashga nisbatan yuqori ekani ko'rsatilgan. Bu holat islom moliyasining amaliy samaradorligini tasdiqlovchi muhim ilmiy xulosalardan biridir.

MDH va Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, R.Xakimov va A.Saidov [10] ishlarida islom moliyasining milliy iqtisodiyotlarga moslashuvi masalalari ko'rib chiqiladi. Mualliflar O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlari uchun islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish moliyaviy resurslar

manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ular huquqiy baza va mutaxassislar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekistonlik olimlar, jumladan, Sh.Mirzayev [12] va D.Xolmatov [13] tadqiqotlarida islom moliyasi va tadbirkorlikni moliyalashtirish masalalari milliy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Ularning fikricha, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish biznes muhitini yanada sog'lomlashtirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish va norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada kichik va o'rta biznes subyektlari uchun islom moliyasi asosida tashkil etilgan moliyaviy mahsulotlarning samaradorligini baholashda kompleks va tizimli tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashtirilib, islom moliyasining asosiy tamoyillari hamda ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Avvalo, mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, islom moliyasi mahsulotlarining mohiyati va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari aniqlab olindi.

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va umumlashtirish kabi umumilmiy usullardan foydalanildi. Islom moliyasi asosida moliyalashtirilgan kichik va o'rta biznes loyihalarining faoliyati an'anaviy kreditlash asosidagi loyihalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning moliyaviy barqarorlik, risklarni taqsimlash va rentabellik ko'rsatkichlari baholandi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar asosida islomiy moliyaviy mahsulotlardan foydalangan tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xos muammolarni hal qilish, O'zbekistonda bunday strukturalar zaif rivojlangani va ko'plab sohalarda amalda yo'qligi iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari to'liq rivojlanmayotganligiga sabab bo'ladi. Ya'ni,

cheklangan ichki bozor va boshqa savdo kanallarining yetishmasligi bilan bog‘liq katta xavf mavjud. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sotilmay qolishidan qo‘rquv tug‘diradi. Uzoq tarixga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasida quritilgan meva va sabzavot ishlab chiqarish sohasi hozirda yetarli darajada rivojlanmagan - mamlakatda 5500 dan ortiq ishlab chiqaruvchilar faoliyat ko‘rsatadi, ularning aksariyati (taxminan 5400) yillik ishlab chiqarish hajmi bir tonnagacha bo‘lgan kichik biznes sohasi vakillaridir.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasida quritilgan meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining eng muhim muammolaridan biri ishlab chiqaruvchilarning barchasi ichki bozorga qaratilganligi hisoblanadi, holbuki, tashqi bozorda ushbu mahsulotni o‘ziga xos xushbo‘yligi va ta‘mi tufayli sotish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bu asosan O‘zbekiston Respublikasining iqlimiga bog‘liq.

Quritilgan meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish butun O‘zbekiston bo‘ylab amalga oshiriladi. Eng qulay iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda quritgichlar umumiy sonining yarmidan ko‘pi Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida joylashgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 260 ga yaqin quritgich mavjud bo‘lib, ulardan 23 tasi sun‘iy. Eng kuchli quritgichlar – 50 kg/soat, 40 kg/soat va 20 kg/soat mos ravishda Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida joylashgan. Sun‘iy quritgichlar beqiyos samaralidir, ammo ularning ishlashi davomida elektr yoki gaz uchun qo‘shimcha xarajatlar paydo bo‘ladi. O‘zbekistonda meva va sabzavotlar asosan issiq yozda pishadi, bu ularning tabiiy qurishini juda samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shuning uchun quyosh quritgichlari O‘zbekistonda juda keng tarqalgan.

Quritilgan meva-sabzavotlarni ishlab chiqarish va sotish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: xom ashyoni yig‘ish va tashish, ulgurji omborlarga joylashtirish, quritish yo‘li bilan qayta ishlash, chakana yoki ulgurji sotish va eksport qilish. Yuqoridagi bosqichlarning har birida ishlab chiqarish jarayonining qiymat zanjirini tashkil etuvchi qo‘shimcha qiymat hosil bo‘ladi. Qiymat zanjirining bilvosita ishtirokchilari ham mavjud, masalan, biznesni qo‘llab-quvvatlash tashkilotlari va boshqalar (1-rasm):



1-рasm. Quritilgan meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining qiymat zanjiri xaritasi¹

Quritilgan meva va sabzavotlarni ishlab chiqarishda uni sotib olish uchun ishlab chiqaruvchilar yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qiladigan xom ashyoni o'z vaqtida yetkazib berish asosiy rol o'ynaydi. Yetkazib beruvchilar, joriy yilning iqlim sharoitiga qarab, ishlab chiqaruvchiga kerakli miqdordagi xom ashyoni taqdim etishi mumkin. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda, quritilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar o'z bog'lariga ega.

Sarhil meva va sabzavot yetkazib beruvchilarni ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh - fermerlar bilan o'zaro muloqot qiladigan ulgurji ta'minotchilar bo'lib, ulardan sarhil meva va sabzavotlarni ommaviy ravishda sotib olib, tashkilotga quritilgan mahsulotlarni yetkazib berish uchun vositachiga aylanadi;

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

Ikkinchi guruh – O‘zbekiston Respublikasining bozorlaridagi olib sotarlar bo‘lib, fermerlardan tovar sotib oladi, shundan so‘ng ulgurji yoki chakana sotishni amalga oshiradi.

Deyarli barcha ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini eksport qilishdan manfaatdor bo‘lib, bu ularga keng talab va izchil ravishda yirik savdo hajmlarini ta‘minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, eksport qilinadigan mahsulotlarni sertifikatlash, ular ISO va boshqa bir qator mezonlarga javob berishi kerak. Biroq, O‘zbekistonda quritilgan mahsulot ishlab chiqaruvchilarning aksariyati, kichik biznes vakillari bo‘lib, tashqi bozorga chiqa olmaydi. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes subyektlarida ko‘pincha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qadoqlash uchun ham mablag‘lar yetarli emas, shundan kelib chiqib ular asosan ichki iste‘molchilarga ya‘ni chakana savdoga ko‘proq e‘tibor qaratadi.

Ichki bozorda tovarlar asosan «ishlab chiqaruvchi – olib sotar –supermarket – yakuniy iste‘molchi» sxemasi bo‘yicha yakuniy iste‘molchiga yetkaziladi. Chakana savdoning asosiy ishtirokchilari quritilgan meva va sabzavotlar qadoqlanmagan holda sotiladigan qishloq xo‘jaligi bozorlari, shuningdek do‘konlar, supermarketlar (ko‘pincha o‘zlari qadoqlashni amalga oshiradi), faqat qadoqlangan mahsulotlar sotiladigan do‘konlar, shuningdek restoranlar va xom ashyo sifatida quritilgan mahsulotlardan foydalanadigan turli ishlab chiqarish tashkilotlari hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston yuqori sifatli xom ashyo mavjudligi jihatidan katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, quritilgan mahsulotlarni import qilish eksportdan ustun turadi. Import chakana savdo va ulgurji savdogarlar sanalgan kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi va deyarli butunlay chakana iste‘molga qaratilgan hisoblanadi. Ba‘zi kompaniyalar mustaqil ravishda ishlab chiqarish faoliyati doirasida quritilgan mahsulotlar importidan ham foydalanadi.

Quritilgan mahsulotlarni rasmiy import qilishdan tashqari norasmiy import ham amalga oshiriladi (masalan, Erondan, asosan, yuk haydovchilari tomonidan olib kelinadi), uning hajmlarini hisobga olish deyarli imkonsiz.

2020 yilda O‘zbekistondan qiymati 255 ming dollar bo‘lgan 188 tonna quritilgan

mahsulot eksport qilindi. Shuni ta’kidlash kerakki, eksport qilinayotgan quritilgan mahsulotlar qiymati 2020 yilda pasaydi, bu esa eksport strukturasi bilan izohlanadi. Eksport qilinayotgan quritilgan mahsulotlarning umumiy hajmida quritilgan mevalarga nisbatan arzon bo‘lgan quritilgan sabzavotlar ustunlik qildi. Taqqoslash uchun, 2019 yilda quritilgan meva-sabzavotlarni eksport qilish hajmi 789 ming dollar miqdorida 187 tonnani tashkil etganini aytish mumkin (1-jadval):

1-jadval

2019-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasida quritilgan mahsulotlar eksporti hajmi²

Qurtilgan mahsulotlar	2019 yil		2020 yil	
	Tonna	ming AQSH dollari	Tonna	ming AQSH dollari
O‘rik	5,0	39,086	22.0	50.000
Olxo‘ri	38,6	153,750	13.0	45.000
Olma	0,4	2,682	5.0	5.000
Shaftoli	58,8	326.029	43.0	95.000
Nok	3,5	27,804		
Yovvoyi mevalar	49,5	136,087		
Anjir	1,3	10.664	-	-
Qurtilgan aralash mevalar	2,0	12.161	1.0	3.000

² Muallif tomonidan tayyorlangan

Jami:	159.1	708.263	84.0	198.000
Qurilgan sabzavotlar	Tonna	ming AQSH dollari	Tonna	ming AQSH dollari
Qo'ziqorin	8.7	12.699	96.0	36.000
Pomidor	2.4	16.377		
Boshqalar	12.3	27.013		
Jami:	23.4	56.089	96.0	36.000
Qurilgan giyohlar	Tonna	ming AQSH dollari	Tonna	ming AQSH dollari
Yalpiz	4.5	24.861	8.0	21.000
Jami:	4.5	24.861	8.0	21.000

O'zbekistonda quritilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, yuqorida ta'kidlanganidek, asosan, kichik ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi, tashqi bozor esa, davriy yetkazib berishni talab qiladi, bu yo'qligida boshqa yetkazib beruvchilar afzal ko'riladi. Shu sababli kichik ishlab chiqaruvchilardan tayyor mahsulot sotib oladigan va ko'p miqdorda davriy eksportni amalga oshiradigan vositachi eksport tashkilotlarining faoliyati ham bu sohada samarali bo'ladi. Bunday o'zaro aloqalarda ishlab chiqaruvchilar faqat ishlab chiqarish jarayoniga diqqatni jamlab, sotuv bozorlari haqida qayg'urmasdan, o'z mahsulotlarining maksimal hajmi va sifatini oshirishga harakat qiladilar.

Ta'kidlash lozimki, quritilgan meva-sabzavotlarni eksport qilish jarayoniga ham qonun chiqaruvchilar bilan bog'liq va qonun chiqaruvchilar bilan bog'liq bo'lmagan bir qator talablar qo'yiladi. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'shimchalar va

kimyoviy moddalardan foydalanish bo'yicha xavfsizlik darajasi juda muhimdir. Tashqi bozor, ayniqsa, Yevropa bozori, unda sotilayotgan mahsulotlarga nisbatan juda ehtiyotkor va talabchandir. Mahsulotlarda belgilangan me'yorlarda ko'zda tutilmagan qo'shimchalar mavjud bo'lgan hollarda yoki uning tarkibi haqida mahsulot qadoqlarida yozuv bo'lmagan hollarda Yevropa bozorida sotish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

35-40% namlikni o'z ichiga olgan quritilgan mahsulotlar tashqi bozorda ham katta talabga ega, chunki ular bir qator afzalliklarga - meva ta'mi aniq bilinib turadi, ozuqaviy qiymati yuqori, tashqi ko'rinishi chiroyli, hidi yoqimli bo'ladi. Biroq, bu mahsulotlar nisbatan qisqa saqlash muddatiga ega va ularni eksport qilish uchun ionlashtiruvchi nurlar bilan qo'shimcha ishlov berish kerak. Xalqaro standartlarga muvofiq, nur bilan qo'shimcha ishlov berilgan mahsulotlar «Radure» yoki «Treated with radiation» belgilari bilan belgilangan bo'lishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur maqolada kichik va o'rta biznes subyektlari uchun islom moliyasi asosida tashkil etilgan moliyaviy mahsulotlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, murabaha, musharaka, mudaraba va ijara kabi islomiy moliyalashtirish vositalari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun foizsiz, risklarni taqsimlashga asoslangan va real aktivlar bilan ta'minlangan muqobil moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mahsulotlar tadbirkorlarning qarz yukini kamaytiradi, moliyaviy barqarorligini oshiradi hamda biznesning uzoq muddatli rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, islom moliyasi mahsulotlarining samaradorligini yanada oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, islom moliyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish lozim. Ikkinchidan, tijorat banklarida islomiy moliyalashtirish yo'nalishlarini kengaytirish va maxsus "islomiy oynalar"ni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, soha bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash va tadbirkorlar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish zarur. Shuningdek, davlat tomonidan kafillik va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish KOB subyektlari uchun islom moliyasi mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-37-son Farmoni
2. Chapra M.U. Islam and the Economic Challenge. Islamic Foundation, Leicester, 1992. 350 p.
3. Iqbal M., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons, Singapore, 2011. 368 p.
4. Khan T., Bhatti H. Islamic banking and finance: On its way to globalization // Managerial Finance. 2008. Vol. 34, No. 10. Pp. 708–725.
5. Ahmad S., Hassan R. The efficiency of Islamic banking: Empirical evidence from small and medium enterprises // Journal of Islamic Finance. 2013. Vol. 2, No. 1. Pp. 45–58.
6. El-Gamal M.A. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. Cambridge University Press, New York, 2006. 240 p.
7. Obaidullah M. Islamic Financial Services. Islamic Economics Research Center, King Abdulaziz University, Jeddah, 2005. 290 p.
8. Wilson R. Islamic finance and small business development // Journal of International Banking Regulation. 2007. Vol. 8, No. 3. Pp. 215–228.
9. Henry C.M., Wilson R. The Politics of Islamic Finance. Edinburgh University Press, Edinburgh, 2004. 312 p.
10. Hakimov R.X. Islom moliyasi va kichik biznesni rivojlantirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali. 2020. №4. 56–63-betlar.
11. Saidov A.A. Islom moliyasi tizimini milliy iqtisodiyotga joriy etishning institutsional asoslari // Moliya va bank ishi jurnali. 2021. №2. 41–48-betlar.
12. Mirzayev Sh.M. O‘zbekistonda islom moliyasi asosida tadbirkorlikni moliyalashtirish istiqbollari // Biznes va iqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali. 2022. №1. 72–79-betlar.
13. Xolmatov D.A. Kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda muqobil moliyaviy mexanizmlar // Iqtisodiy tahlil jurnali. 2023. №3. 60–68-betlar.